



---

## SOCIO-ECONOMIC SYSTEMS

Tuychieva Nodira<sup>1</sup>

Saitov Sirojiddin<sup>2</sup>

Zoirov Azizbek<sup>3</sup>

*Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

---

### KEYWORDS

definition, relations, traditional economy, free competition, market economy

### ABSTRACT

This article will talk about the structure, components, and mechanisms of operation of socio-economic systems and the subsections involved in them. The article provides a brief overview of the relationship between subsections in the systems of social and economic.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7381957

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

---

<sup>1</sup> Assistant, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Jizzakh, Uzbekistan

<sup>2</sup> Senior teacher, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Jizzakh, Uzbekistan

<sup>3</sup> Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Jizzakh, Uzbekistan

## IJTIMOYIY-IQTISODIY TIZIMLAR

### KALIT SOʻZLAR:

taraqqiyot, munosabatlar, anʼanaviy iqtisodiyot, erkin raqobat, bozor iqtisodiyoti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar tuzilishi, tarkibiy qismlari, ishlash mexanizmlari va unga qatnashuvchi subektlar toʻgʻrisida soʻz boradi. Maqolada ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarida subektlar orasidagi munosabatlar haqida qisqacha maʼlumot berilgan.

Kishilik jamiyati ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqaruvchi kuchlarning oʻzaro birligi va ziddiyati asosida taraqqiyot etib borib, uning turli bosqichlariga oʻziga xos boʻlgan iqtisodiy tizimlar muvofiq keladi. Insoniyat taraqqiyoti bosqichlari va har bir bosqichga xos boʻlgan iqtisodiy tizimlarni oʻrganish iqtisodiy jarayonlarni, ularning oʻzgaruvchan ekanligini bilishda muhim ahamiyatga egadir. Taraqqiyot bosqichlarini bilishda turli xil yondashuvlar mavjud boʻlib, ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib koʻrsatish mumkin:

- tarixiy-formatsion yondashuv;
- madaniylashish (sivilizatsiya) darajasi jihatidan yondashuv;
- texnika va texnologik taraqqiyot darajasi jihatidan yondashuv;
- iqtisodiy tizimlar oʻzgarishi jihatidan yondashuv.

Ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarini bilishga tarixiy-formatsion yondashuvda ishlab chiqarishning ijtimoiy usullari va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilishga eʼtibor berilgan. Ishlab chiqarish usuli ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish (iqtisodiy) munosabatlarining birligidan iborat. Ishlab chiqarishning shaxsiy va moddiy omillari, yaʼni ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari birgalikda jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini tashkil qiladi. Boshqacha aytganda, ishlab chiqaruvchi kuchlar - bu ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida kishilar bilan tabiat oʻrtasidagi bogʻlanishni amalga oshiruvchi shaxsiy va texnik-buyumlashgan elementlar tizimidan iborat. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim mezon va umumiy koʻrsatkichidir. Odamlar ishlab chiqarish jarayonida faqat tabiat ashyolari va boshqa moddiy ashyolar bilan emas, shu bilan birga oʻzaro bir-biri bilan ham munosabatlarda boʻladilar, yaʼni ishlab chiqarish munosabatlariga kirishadilar. Bunda ishlab chiqarishda tarkib topadigan tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bir-biridan farq qiladi. Tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar ishlab chiqarishni tashkil qilish jarayonida vujudga keladi. Mazkur munosabatlar kishilar oʻrtasidagi aloqalar sifatida namoyon boʻlib, shu bilan birga ishlab chiqarish holatini bevosita tavsiflaydi, ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti muayyan bosqichlarning xususiyatlarini va ularning ijtimoiy uygʻunlashuvini aks ettiradi. Bu masalan, mehnat taqsimoti, uni ixtisoslashtirish va kooperatsiyalash, ishlab chiqarishning toʻplanishi va uygʻunlashtirilishidir.

Ular bir vaqtda bazis ham hisoblanib, uning ustida ishlab chiqarish munosabatlarining ushbu tizimiga xos bo'lgan alohida siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, milliy, oilaviy va boshqa ijtimoiy munosabatlar hamda tartibotlaming alohida turlari qad ko'taradi. Ana shulaming yig'indisi jamiyatning ustqurmasini tashkil etadi. Siyosat, huquq, ahloq va ustqurmaning boshqa elementlari ham faol rol o'ynaydi, o'zlarini vujudga keltirgan ishlab chiqarish munosabatlariga, ular orqali esa jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlariga ham aks ta'sir ko'rsatadi.

Har bir davrda va makonda amal qilayotgan iqtisodiy munosabatlar majmuasi iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo'jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar bilan birgalikda iqtisodiy tizimni tashkil qiladi. Iqtisodiyot nazariyasi fanida ko'pincha iqtisodiy tizim tushunchasini ishlab chiqaruvchi kuchlaming rivojlanish darajasi bilan bog'lab turkumlashga harakat qilinadi. Shu asosda dunyodagi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy tizimning uchta nusxasigakiritiladi: an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiyoti va bozor iqtisodiyoti tizimlari. An'anaviy iqtisodiyot - deyarli hamma mamlakatlar bosib o'tgan tarixiy tizimdir.

U hozirgi davrda ham ba'zi iqtisodiy jihatdan past rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lib, ularda urf-odatlar, udumlarga, an'analarga asoslangan iqtisodiy jarayonlar orqali amal qiladi. An'anaviy iqtisodiyotda natural yoki mayda tovar xo'jaligi hukmron bo'ladi. Bu yerda ishlab chiqarish, ayirboshlash, daromadlami taqsimlash vaqti-vaqti bilan o'matiladigan urf-odatlariga asoslanadi. Merosxo'rlik va sulola (tabaqa) shaxslarning iqtisodiy roli yuqori bo'lib, asosan ular hukmronlik qiladi, ijtimoiy-iqtisodiy turg'unlik aniq ifodalanadi. Texnika taraqqiyoti va yangiliklami joriy qilish keskin cheklangan, chunki ular ko'pincha an'analarga zid keladi va ijtimoiy tuzum barqarorligiga xavf tug'diradi. Iqtisodiy faoliyatga nisbatan diniy va madaniy tartiblar birlamchi hisoblanadi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiyot muammosini hal qilishning bir xil va umum tan olingan yechimi mavjud emas. Xar xil madaniyat va tarixiy o'tmish, har xil urf-odat va an'anal, qarama-qarshi mafkuraviy qarashlarga ega bo'lgan turli jamiyatlar aniq iqtisodiy muammolami hal qilish uchun turli xil tartiblardan foydalanadi. Bozor iqtisodiyotiga qarama-qarshi tizim ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti hisoblanadi. Bu tizim amalda barcha moddiy resurslarga ijtimoiy, aniq ro'g'i, davlat mulkchiligining hukmronligi va ma'muriy organlar tomonidan iqtisodiy qarorlaming markazlashgan tartibda qabul qilinishi bilan tavsiflanadi. Foydalanadigan resurslarning hajmi, mahsulotning tarkibi va taqsimlanishi, ishlab chiqarishni tashkil qilish kabilarga tegishli barcha muhim qarorlar markaziy boshqarish organlari tomonidan qabul qilinadi. Iqtisodiy taraqqiyotda muhim bosqich hisoblangan tizim bozor iqtisodiyoti tizimidir. Bozor iqtisodiyoti tizimi asosan ikki bosqichga egadir. Birinchisi erkin raqobatga asoslangan klassik bozor iqtisodiyoti bo'lib, ba'zi adabiyotlarda uni sof kapitalizm deb ham yuritiladi. Ikkinchisi esa hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti bo'lib, uni aralash iqtisodiyot tizimi deb ham yuritiladi. Erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti resurslarga xususiy mulkchilik, iqtisodiy faoliyatda va tadbirkorlikda erkinlik, iqtisodiy jarayonlami tartiblashda va uyg'unlashtirishda bozor

mexanizmidan foydalanish bilan tavsiflanadi. Bunday tizimda har bir iqtisodiy subyektning xatti-harkati uning xususiy manfaatiga asoslanadi. Ular o'zlari qabul qilgan xo'jalik yechimlari va qarorlari asosida daromadlarini eng yuqori darajada yetkazishga intiladilar. Bu alohida qabul qilingan qarorlar bozor tizimi yordamida uyg'unlashtiriladi. Raqobat sharoitida tovarlarning ishlab chiqarilishi, resurslarning taklif qilinishi shuni bildiradiki, har bir mahsulot va resurslarning ko'plab mustaqil harakat qiluvchi xaridor va sotuvchilari mavjud bo'ladi. Bu yerda iqtisodiy jarayonlarga davlatning aralashuvi cheklangan tavsifga ega bo'ladi. Shu sababli davlatning roli xususiy mulkni himoya qilish va erkin bozorning amal qilishiga qulay sharoit yaratuvchi huquqiy tartiblar o'rnatishdan iboratdir.

Shavkat Mirziyoyev samarqandlik saylovchilar bilan uchrashuvda viloyatda 450 mingta ish o'rni yaratish orqali kambag'allikni 2 barobarga qisqartirish eng ustuvor vazifa ekanligini aytdi. U Narpay tumani misolida viloyatda ishsizlik va kambag'allikka barham berish bo'yicha rejalarni ma'lum qildi. Tumanning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, 12 ta mahallada quruvchi, chilangar, qandolatchilik, tikuvchilik, IT-soha kasblari bo'yicha kasb-hunarga o'qitish maskanlari tashkil etiligi aytiladi. Shavkat Mirziyoyev Samarqandni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha besh yillik dastur doirasida Narpay tumani misolida viloyatda ishsizlik va kambag'allikka barham berish bo'yicha rejalarni ma'lum qildi. Unga ko'ra Narpay misolida, tumanni "ishsizlikdan xoli hudud"ga aylantirish bo'yicha yangi tizim amalga oshiriladi. Ma'lum qilinishicha, ayni paytda tumanda mehnatga layoqatli 14 ming ishsizlar mavjud. Shu bilan birga, 4 mingta oila kambag'al toifaga kiritilgan. Tumandagi 57 ta mahallaning 11 tasi qizil va 33 tasi sariq mahalla toifasiga kiradi. Tumandagi mahallalarga birlashtiriladigan "hokim yordamchilari" lavozimlari joriy etiladi. Ular mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish va yangi ish joylarni tashkil etish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etadi.

Xulosa: Maqoladan xulosa qilib aytganda iqtisodiy-ijtimoiy zamonaviy iqtisodiy tizim, bir tomondan, jahon xo'jaligiga integratsiyalashgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, iqtisodiy qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun o'zining harakatchanligini saqlab turishi kerak. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror davrida iqtisodiy tizim umume'tirof etilgan bozor qonunlari asosida faoliyat ko'rsatishi kerak, beqarorlik davrida iqtisodiy tizim tezda qo'lda boshqarishga o'tishi, yuzaga kelgan qiyinchiliklarga mobil javob berishga qodir bo'lishi kerak. paydo bo'lgan. Shuning uchun dunyoda ko'pincha bozor mexanizmlari va iqtisodiy tizimning buyruq turiga xos bo'lgan mexanizmlarni o'z ichiga olgan aralash turdagi iqtisodiy tizimdan foydalaniladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Iqtisodiyot nazariyasi Sh.Sh.Shodmonov , B.Y.Xodiyev (82-84)
2. <https://kompy.info/sotsial-iqtisodiy-tizim.html>
3. <https://econferences.ru/index.php/arims/article/view/1471>
4. <https://vseosvita.ua/library/embed/01003qwq-82b3.doc.html>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/09/24/samarkand/>

6. To'ychiyeva N. Elektron Ta 'lim Tizimining Afzalliklari Va Kamchiliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 40-41.
7. Норбеков Х., Туйчиева Н. Формирование конкурентных преимуществ компании //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 589-592.
8. Nodira T., Maxfirat T. FORMATION AND DEVELOPMENT OF PRONUNCIATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN SCHOOL STUDENTS //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – T. 1. – №. 1.
9. Nodira T., Maxfirat T. MODERN METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE PRONUNCIATION TO PRIMARY SCHOOL PUPILS IS BASED ON THE JAPANESE EXPERIENCE //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 205-208.
10. Nodira T., Rashid X. PROBLEMS OF INNOVATION MANAGEMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 155-164.
11. Nodira T. PRIORITIES FOR ORGANIZING ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES IN THE AGRICULTURAL SECTOR //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 192-199.
12. Nodira T. INNOVATIVE MANAGEMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 346-351.
13. To'ychiyeva, N. (2022). AGRAR SOHADA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(4), 53–56. Retrieved from <http://researchedu.org/index.php/cf/article/view/625>
14. To'ychiyeva , N. (2022). AGRAR TARMOQDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TASHKILY-IQTISODIY ASOSLARI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(4), 3–6. Retrieved from <http://researchedu.org/index.php/cf/article/view/624>
15. To'ychiyeva N. THE MAIN CHARACTERISTICS OF INNOVATION MANAGEMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 103-105.
16. Nodira T., Maxfirat T. FOREIGN LANGUAGE PRONUNCIATION IN GRADES 1-4» //РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ. – C. 1133.
17. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.
18. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta 'lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.

19. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO'LLASH USTUVORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1 (6), 58-60. – 2022.

20. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1 (6), 96-98. – 2022.

21. Мухтаров Б. А. Оптимальное распределение объемов строительно-монтажных работ //Молодой ученый. – 2018. – №. 22. – С. 427-431.

22. Мухтаров Б. А. Имитационная система прогнозирования факторов в легкой промышленности //Молодой ученый. – 2017. – №. 40. – С. 122-124.

23. G'aybullayev Sarvar O. et al. O 'ZBEKISTONDA ISTE'MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO 'NALISHLARI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 4. – С. 119-125.

24. Azimov Y. H. et al. Olympism and olympic education at the present stage //Фундаментальные и прикладные исследования в современном мире. – 2016. – №. 13-4. – С. 119-121.

25. Rashidov , A. (2022). IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA NOTARIF USULLARINING O`RNI VA AHAMIYATI. Архив научных исследований, 2(1). извлечено от <http://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1016>

26. Rashidov Abror Ro'zimurod o'g'li. (2022). JIZZAX VILOYATI IQTISODIY O'SISH KO'RSATKICHLARI YOKI JARAYONLARI . PEDAGOGS Jurnali, 5(1), 20-22. Retrieved from <http://www.pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/290>